

## MAQSUD SHAYXZODANING ADABIY MEROSI

**Tursunaliyev Dilshodjon Murodjon o'g'li**

**Qodirov Islomjon Iqboljon o'g'li**

*(Toshkent davlat transport universiteti)*

**Annotatsiya:** *Maqolada adib Maqsud Shayxzodaning adabiy merosi xususida so'z boradi. Zamondoshlarining ijodkorga bildirgan munosabatlari, hamfikir ekanliklari, ijodkorning adabiy muhitdagi faoliyati tubdan o'rganilgan. Maqsud Shayxzodaning Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy siymolar obrazi ustida izlanishi va ularga bergan badiiy sifatlari adabiyotshunoslik nuqtayi-nazari bilan tahlil etilgan. Adib ijodiy merosi ustida olib borilgan tadqiqotlar eslab o'tilgan. Shayxzodaga o'zbek shoir va yozuvchilarining bahosi, shuningdek, o'zbek adabiyotida alohida tan olinishi va e'tirof etilishi maqolada qisman keltirilgan. Shayxzodaning ijodkor umri bir kun tugaydi, lekin asl ijod umri hech qachon tugamaydi, degan falsafasi maqolaning asosiy mazmunini tashkil etadi.*

**Kalit so'zlar:** *Yozuvchi, asar, falsafa, she'riyat, jamiyat, Ozarboyjon-o'zbek adabiy aloqolari.*

**Abstract:** *The article talks about the literary heritage of the intellectual writer Maqsud Sheikhzade. The relations of his contemporaries to the artist, their agreement, and the artist's activity in the literary environment have been thoroughly studied. Maqsud Sheikhzadeh's work on the image of historical figures such as Mirzo Ulugbek, and Jalaliddin Manguberdi and the artistic qualities he gave to them were analyzed from the point of view of literary studies. Researchers on the creative heritage of writer is mentioned. The evaluation of Sheikhzadeh by Uzbek poets and writers, as well as his special reputation in Uzbek literature, is partially presented in the article. The article's main content is Shaikhzade's philosophy that creative life ends one day, but original creative life never ends.*

**Key words:** *writer, work, philosophy, poetry, society*

Maqsud Maqsumbek o'g'li Shayxzoda Respublikasi, Ganja viloyati, Oqtosh shahrida tavallud topgan. Maqsud Shayxzoda shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagogdir. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1964). Bokudagi doril-mualliminni tugatgan (1925). Dastlab Darbanddagi I-bosqich ozarbayjon maktabida, Bo'ynoqdagi ta'lim va tarbiya texnikumida o'qituvchi bo'lib ishlagan. 1927-yilda aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida hibsga olinib, 1928-yil fevralda Toshkentga surgun qilingan. Shayxzoda O'rta Osiyo unversitetining Sharq fakultetida qisqa muddat o'qigani (1928) dan keyin "Sharq haqiqati" (1929—32), "Qizil O'zbekiston", "Yosh leninchi" gazetalari (1932), "Guliston" jurnali (1933—1934) tahririyatlarida xizmat qilgan. 1933-yil Bokudagi pedagogika institutining barcha kurslari uchun

imtihon topshirib, Fan qo‘mitasi qoshidagi aspiranturaga o‘qishga kirgan (1934). Ayni paytda Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan (1935—1938). 1938-yildan umrining oxiriga qadar dastlab kechki, so‘ngra kunduzgi pedagogika institutlarida o‘zbek adabiyoti tarixidan ma‘ruza o‘qigan. Shayxzoda Ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan “Jaloliddin Manguberdi” (1944) tragediyasida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mug‘ul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shoxining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. “Mirzo Ulug‘bek” (1961) tragediyasida Shayxzoda bosh qahramon obrazini Amir Temur va temuriylar davrida o‘zbek xalqi hayotida ro‘y bergan uyg‘onishning yorqin timsoli sifatida aks ettirgan. Shekspirona uslubda yozilgan bu asarda Shayxzoda Ulug‘bek hayotining sunggi 2 yilini tasvirlash orqali uning jahon fani tarixidan munosib o‘rin egallagan mashxur olim, adolatparvar va haqiqatparvar davlat arbobi va ayni paytda saltanatning mutaassib kuchlari oldida ojiz bir inson bo‘lganini ham haqqoniy ko‘rsatgan. Shekspirona ko‘lam va harorat bilan yozilgan “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasining maydonga kelishi o‘zbek dramaturgiyasi va teatri tarixida katta voqea bo‘ldi. Shayxzoda senariysi asosida rejissor L. Fayziyev tomonidan yaratilgan “Ulug‘bek yulduzi” (1964) filmi esa keng xalq ommasiga ulug‘ o‘zbek olimi va uning fojiali taqdiri bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Shayxzoda adabiy bilim doirasining kengayishi, ijodining mumtoz jahon yozuvchilari badiiy tajribasi bilan boyishida tarjima muxim rol o‘ynadi. U Sh.Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan paxlavon” (hamkorlikda) eposi, U.Shekspirning sonetlari, A.S. Pushkinning she‘rlari, “Mis chavandoz” dostoni, “Motsart va Salyeri” tragediyasi, M.Yu. Lermontovning she‘rlari va “Kavkaz asiri” dostonini, shuningdek, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat va boshqa yozuvchilarning ayrim asarlarini o‘zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qildi. Shoir 1967-yil Toshkentda vafot etdi. 2001-yili o‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun “Buyuk hizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. Maqsud Shayxzodaning o‘zbek adabiyoti, madaniyati ravnaqiga qo‘shgan hissasi mustaqil O‘zbekiston va uning hukumati tomonidan munosib e‘zozlandi. Qator maktab va ko‘chalar uning nomi bilan taqdirlangan. XX asr o‘zbek she‘riyati rivojida Shayxzodaning o‘rni katta. Rang barang shakl va mazmun, ko‘tarinki ruh, o‘ktam pafos bilan sug‘orilgan she‘rlaridagi quyma obrazlar, ramziylik, so‘zlardagi jarangdorlik, musiqiy salobat shoir asarlariga ajib badiiy yaxlitlik baxsh etadi, o‘quvchi qalbida shularga monand hissiyotlar to‘lqinini uyg‘otadi. Shoir hech qachon, kitobiy, sun‘iy muammolarni izlamadi. U, eng avvalo, o‘zini hayajonga solgan, o‘zidagi fuqarolik va poetik hujayralari ko‘zini ochgan masalalarga murojaat etadi. Shoir uyg‘otgan yog‘dular kitobxon qalbi, shuurga ham ko‘chib o‘tadi. O‘zining yangi umrini boshlaydi. Uning she‘rlarida, ayniqsa, chiroyli badiiy obrazlar mo‘ldir. Shoirga ba‘zan dengizdagi nuqtadek qayiq “suv ustidagi xol” bo‘lib tuyulsa, ba‘zan chag‘alaylar quyrig‘i “Ufqqa berilgan savol” bo‘lib jaranglaydi. Shayxzoda she‘rlari “Chorak asr davomida”, “Dunyo boqiy”, “Xiyobon” singari o‘nlab to‘plamlarda

bosilib chiqdi. Bu she'rlar yuksak insoniy orzular bilan yashayotgan zamondosh xayollari, muhabbati, dardlari, umidlari bilan kuyladi. To'g'ri, qirq yil davom etgan ijodida Shayxzoda Lenin, Kreml, sho'rolar, irqa va firqaviylarni ham kuyladi. Lekin bu zamon va tuzumning shoir taqdiri va ijodidagi muhridir. Biroq Shayxzoda she'riyatining qimmatini bu yo'nalishdagi asarlar bilan emas, inson qalbining nozik va betakror holatlarini nafis va ko'tarinki, umidvor aks ettirib, o'quvchida ana shunday go'zal onlarning yanada boyishida xizmat qiluvchi asarlari bilan belgilanadi. Shayxzoda shoirning asosiy vazifasini "inson ruhini tarbiyalash, odamda yaxshilik unsurlarini ko'paytirish, xalqqa go'zallik va nafosat tuyg'usini yanada baland darajada ko'tarishda" deb bilgan edi. Uning "Toshkentnoma" nomli lirik falsafiy dostoniga munosabatda ham shu nuqtayi nazardan kelib chiqish to'g'ri bo'ladi. Shoining bu fikrlari o'zining aksar she'rlari uchun ham ochqich bo'la oladi. Maqsud Shayxzoda fikricha va iqroriga, hayotdagi buyuk ne'matlardan biri she'riyat, tengsiz go'zalliklardan biri she'rdir. Shayxzoda "She'r chin go'zallik singlisi ekan" nomli she'rida butun ijodi bo'ylab porlagan – she'riyatning insonga cheksiz go'zalliklar, ruhiy tovlanish va evrilishlar in'om etguvchi mohiyatini kuylaydi, uning yangi-yangi qirralarini ochishga intiladi. She'r sarlavhasidagi fikr, bir jihatdan, yangilik emasdek. Unga yaqin qarashlarni Navoiy, Pushkin, Yesenin, Cho'lpon ijodida ham uchratamiz. Biroq she'riyatning yozilmagan qoidalariga ko'ra, asosiy masala, asarga turtki bo'lgan fikr va ifodalanayotgan ma'nodagina emas, balki ularning badiiy namoyon etilish tarzi, o'quvchi ruhiyatida yangi to'lqinli tuyg'ularni uyg'ota bilish san'atidir. Shayxzodaning "She'r chin go'zallik singlisi ekan" asari shu jihatlari bilan qimmatli Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyoti rivojiga kata hissa qo'shgan, mustabit tuzumi davrida azob chekkan, shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagogdir. Uning she'rlarida jo'shqinlik, sevgi, vatanga mehr kabi tuyg'ular seziladi. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi inson qalbida mehr va iliqlik uyg'otadi. Ajdodlarimiz hayoti, ijodi va meroslarini o'rganishlik, ulardan habardor bo'lishlik hamda ularni hayotga tadbiq qilishlik – bizni faqat va faqat muvaffaqiyat sari yetaklaydi. Maqsud Shayxzoda hayot yo'li bizda kuchli karakter shakllantiradi. Uning hayot zarbalariga sabr bilan dosh berishi va o'z faoliyatidan to'xtamasdan, matonat bilan ijod qilishi barchamizga o'rnak bo'la oladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'lqin Eshbek. Shayxona shoir.«Tafakkur» jurnali ( 2007 yil, 4-soni).
2. Naim Karimov, Maqsud Shayxzoda: Ma'rifiy-biografik roman. – T.: "Sharq", 2009.
3. Tursinaliyev Dilshodjon Murodjonovich, Qodirov Islomjon Iqboljon o'g'li MAQSUD SHAYXZODA BUYUK TARJIMON.